

IJTIMOIIY ISH SOHASIDA AXBOROT – KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHK

Gulbahor Yuldasheva

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti

Nigoraxon Teshaboyeva

FarDU, Ijtimoiy ish yo'nalishi II kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Annotatsiya:

Kalit so'zlar:

*axborot kommunikatsiya
texnologiyalari, ijtimoiy ish,
qonun, statistika.*

Berilgan maqolada ijtimoiy ish va ilmiy tadqiqot faoliyatlarida raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirishning asosiy vasifalaridan biri axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) rivojlanishi va uni sohada tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

XXI asr yangi axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda ayniqsa, axborot texnologiyalariga tegishli bilimlarga ega bo'lmay turib zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirib bo'lmaydi.

XXI asrda mehnat bozori ish o'rinlarini o'zgarishiga, yangilarini paydo bo'lishiga ta'sir etar ekan, ijtimoiy ish faoliyatida ham shunga mos ravishda javob berilishi kerak. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni ijtimoiy ishda muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy–iqtisodiy tarmoqlar hamda boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini “elektron hukumat” tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tadbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun yetarli shart–sharoitlar yaratilgan. Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratildi, yangi imkoniyatlar ochadi, bizdan esa yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab qiladi.

ASOSIY QISM

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyat hayotining muhim bo'g'inlaridan biriga aylanishga ulgurgan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish, respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirishga oid belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-

sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan hududlar va tarmoqlarda jami 1627 ta loyiha va chora – tadbirlarni amalga oshirish belgilangan bo‘lsa, shundan 587 tasi 2020 yil va 2021 yilning birinchi choragida 29 ta namunaviy tumanda, 597 tasi 2020-2022- yillardagi 13 ta hududda, 443 tasi 2020-2022- yillarda soha va tarmoqlarga tog‘ri keladi.

Ta’kidlash loizki, dunyo mamlakatlari tajribasida ilmiy tadqiqotlar I.T. texnologiyalari, kompyuter savodxonligiga juda katta ahamiyat beriladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga juda ham ko‘plab ko‘nikmalarni oladi. AKT savodxonligi bo‘yicha egallanishi lozim bo‘lgan tayanch ko‘nikmalarga quyidagilar:

- kompyuter haqida tushunchaga ega bo‘lish va uning ishlash prinsiplarini bilish;
- dasturiy ta’minot haqida bilimlarga ega bo‘lish;
- didaktik materiallar va ishchi hujjatlarini tayyorlashda matn muharrirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar to‘plamidan foydalana olish;
- internet tarmog‘i imkoniyatlaridan foydalanishni bilish kiradi.

Yuqoridagi yozilgan ko‘nikmalar AKT savodxonligiga erishish uchun zarur bo‘lgan minimal ko‘nikmalar hisoblaniladi. Zamonamizda ijtimoiy xodimlar AKT dan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash turli manfaatlardan olgan ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko‘nikmalarni hosil qilishga qodir bo‘lishligi kerak bo‘ladi. Ijtimoiy faoliyatda har bir xodim AKT vositalarini joriy etar ekan, ularning tuzilishi va ishlash prinsiplaridan xabardor bo‘lishlari kerak

Ijtimoiy yo‘nalishda faoliyat yuritadigan har bir shaxs, tashkilot xodimlari ishda kompyuter texnikasi va AKT dan foydalanish bo‘yicha bilimlarini muntazam yangilab borishi hamda ko‘nikmalarni takomillashtirib borishi zarur. Xodim haqida so‘z borganda, ishda kompyuter texnikasi va AKT dan foydalanish bo‘yicha malakasini oshirishi kerak bo‘lgan tashkilot rahbari yoki xodimidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.04.2022 yil “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining malakasi va ko‘nikmalarining oshirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar hamda ularni ishda kompyuter texnikasi va axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” gi qaror qabul qilingan. Ko‘zlangan maqsad esa, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida kompyuter texnikasi axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xodimlar malakasi va ko‘nikmalarini kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo‘yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan baholashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish.

Ta’lim sohasiga nazar tashlasak, kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan o‘quvchilar ham dars jarayonida AKT vositalaridan samarali foydalana olmaydilar. Ushbu holat ko‘plab davlatlarning ta’lim tizimiga xos bo‘lgan muammodir. Ko‘rinib turibdiki, aktuallik jihatidan AKT dan dars jarayonida foydalanish metodikasi AKT savodxonligiga ega bo‘lishlikdan ko‘ra muhimroq hisoblanadi. Fikrimizning tasdig‘i sifatida, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “O‘quvchilarning axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo‘lishlik bo‘yicha tavsiyalari” ni keltirishimiz mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ijtimoiy ish rivojlanishidagi o‘rni zamonaviy jamiyatning barcha jabhalarida ya’ni bir-birimiz bilan muloqot qilish uslubimiz, kerakli ma’lumotlarni qanday topishimiz, ishlashimiz, biznes yuritishimiz, davlat idoralari bilan muloqot qilishimiz va ijtimoiy hayotimizni qanday boshqarishimiz kabi jabhalarda o‘z aksini topgan.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasini yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarni

qondirilishiga, ijtimoiy-iqtisodiy o‘shish hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy tadqiqot - bu hatlovga olinishidan tortib, fan olimlari tomonidan tizimli reja asosida olib boriladigan tadqiqotlar tushuniladi. Har qanday tadqiqot asosiy muammoni aniqlashdan boshlanadi. Ijtimoiy ishda masalan mahalla tizimini olganda, u yerdagi ehtiyojmand oilalar muammolari, nogironligi bor shaxslarga yaratilayotgan imkoniyatlar, kam ta‘minlanganlarga yordam, 18 yoshgacha bolalar nafaqasi, o‘zini-o‘zi band qilish kabi muammolarga yechim topiladi, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiriladi. Har bir muammoga hozirgi AKT davrida kompyutersiz ish bitirib bo‘lmaydi. Chunki aholini ro‘yxatga olishdan tortib, fuqaro haqidagi har qanday malumotlar ba‘zida ko‘rinadi. Ayniqsa 18-yoshgacha bolalar nafaqasi tayinlashda inson omili asosan ishtirok etmaydi. Bu degani, fuqaro haqidagi haqiqiy ma‘lumotlar axborotlashtirilgan hisoblanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadqiqot ma‘lumotlarini to‘plash va ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali nazariyalarni yaratish yoki tasdiqlashga harakt qiladi. Ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish esa, tabiiyki, AKT yordamida amalga oshiriladi.

XULOSA VA MUNOZARA

So‘z yakunida shuni aytmoqchimanki, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida dunyoning bir burchagida bo‘la turib, narigi burchagida o‘qish va yozishga qurbi yetmaydigan bolalarni, ayollar va qizlarni o‘qitish mumkin. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida o‘rin egallab kelayotgan O‘zbekiston barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishmoqda, bu muvaffaqiyatlarga esa, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya tizimlarining jo‘shqin rivojlanishi asos bo‘lmoqda. Hozirda joylarda savodxonlikni oshirish, ijtimoiy jabhalarda yutuqlarga erishish nafaqat ijtimoiy balki har sohadagi muvoffaqiyatlarda inson omili bilan birgalikda texnologiya imkoniyatlari hattoki ilgari lab ketayotganligi quvonarli hol albatta. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, inson texnika uchun emas balki, texnika inson uchun xizmat qilmog‘i darkor. Shu o‘rinda Kreyg Barretning so‘zalarini keltirish o‘rinli bo‘ladi.

“Mo‘jizani kompyuterlar emas balki o‘quvchilar yaratadi.” Ya‘ni, axborot texnologiyalari vositalari hayot sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda AKT bilimlar yig‘ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2022-yil
2. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta‘lim muhitida axborot texnologiyalarining o‘rni. *Международный научный журнал «Научный импульс»*. № 10(100), 118-121.
3. G.I.Yuldasheva (2023). Ta‘lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o‘rni. *Golden brain Multidisciplinary Scientific Journal*, Volume 1 (Issue 30), 144-147.
4. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 5(Special issue), 236-240.
5. G.I.Yuldasheva., M. Yo‘ldosheva. (2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”, 1(6), 127-130
6. Tolibov, B. X. (2021). Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining evolyutsion yondashuvlari. *Журнал социальных исследований*, 4(4).
7. Teshaboyeva Nigora. (2024). Media va axborot savodxonligi –raqamlashuv davrining asosiy talabi. *Integration of Economy and Education in the 21st Century*, 2(2), 31–32.
8. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2023). Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish

asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 5(Special issue), 236-240.

9. Olimova N.X., Yo‘ldosheva Mohlarbegim (2023). Xizmatlar sohasida elektron tijoratni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashitirish. *Новости образования: исследование в XXI веке*. 2(16), 844-848
10. Teshabaeva, O., Yuldasheva, G., & Yuldasheva, M. (2021). Development of electronic business in the republic of Uzbekistan. *Интернаука*, (3-3), 16-18.